Sizga davlat taʻlim muassasalarida tahsil olish va kunduzi oʻqishni tavsiya etamiz – bu holda **chet ellik talabalar va bitiryvchilar quyidagi huquqlarga ega boʻlichlari mumkin:**

- jumladan, rus tilini biluvchilar sifatida RFda vaqtincha yashashga, yashash huquqiga ijozat olish, osonlashtirilgan tartibda RF fuqaroligini olish;
- vatandoshlarning koʻchishiga koʻmaklashish Davlat dasturida qatnashish;

Kunduzi oʻqiydigan chet ellik studentlar oʻqishdan boʻsh paytlarida patent va ishlash uchun ijozatsiz ishlay olishlari mumkin. Ularga ish beruvchi bilan mehnat va fuqarolik-huquqiy shartnoma tuzishlari uchun davlat akkreditasiyasiga ega boʻlgan oliy oʻqyv uyrti yo kollejdan oʻsha oʻquv uyrtida oʻqishini tasdiqlovchi maʻlumotnoma koʻrsatish talab etiladi, xolos.

Sirtqi va kunduzgi-sirtqi boʻlimlar studentlari Rosssiyada ishlash uchun ishlash uchun patent rasmiylashtirishlari shart.

Studentlar – EOIH mamlakatlari (Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Armaniston, Belorus) fuqarolari har qanday vaqtda patentsiz va ishga ijozatsiz ishlash huquqiga egadirlar.

Studentlar – kunduzgi-sirtqi boʻlimlarda tahsil olayotgan vizada boʻlgan mamlakatlar fuqarolari ishlash uchun talabalik ijozati rasmiylashtirish huquqiga ega emaslar. Agar siz bu toifaga kirsangiz, oʻs oʻquv yurtingizda ish topish uchun harakat qiling.

Sirtqi boʻlimda oʻqiyotgan studentlar-vizada boʻlgan mamlakatlar fuqarolari ishlash uchun (va Rossiyada sessiya vaqtiga qaraganda koʻproq muddatda qolish uchun ) mehnat taklifi rasmiylashtirishlari shart, keyin ish vizasi va soʻng ishlash uchun ijozat.

## Foydali saytlar:

russia.study –Россотрудничества и МИД РФ ning chet ellik fuqarolarni Rossiyada oʻqishga tanlab olish uchun rasmiy sayti .

studyinrussia.ru –Министерства науки и высшего образования РФning chet ellik studentlar uchun rasmiy sayti. Saytda Rossiya oliy oʻquv yurtlari borasida maʻlumotlar, oʻqishga kirish uchun maslahatlar, yangiliklar mavjud.

migrussia.ru – «Мигранты и миграция. Межрегиональный информационный портал» – moslashib ketish va oʻz huquqlarini himoya qilish uchun maslahatlar, muhojirlik qonunchiligi yangiliklari.

## Foydali muloqotlar

**Многофункциональный центр предоставления государственных и муниципальных услуг (МФЦ):**
Sankt-Peterburg: 8 (812) 573-90-00, gu.spb.ru/mfc
Leningrad viloyati: 8 (800) 500-00-47, 8 (812) 775-47-47, mfc47.ru
Moskva: 8 (495) 777-77-77, md.mos.ru
Moskva viloyati: 8 (800) 550-50-30, uslugi.mosreg.ru

**Комитет по образованию Санкт-Петербурга:**
8 (812) 576-20-19, k-obr.spb.ru

**Комитет общего и профессионального образования Ленинградской области:** 8 (812) 539-44-50, 8 (812) 539-50-90, www.edu.lenobl.ru

Департамент образования и науки города Москвы:
8 (495) 366-66-80, www.mos.ru/donm

**Министерство образования Московской области:**
8 (498) 602-11-23, mo.mosreg.ru

**mehnat muhojirlari uchun qaynoq tarmoq Комитета по межнациональным отношениям и реализации миграционной политики в Санкт-Петербурге:** 8(812)576-28-67

**Уполномоченный по правам ребенка:**
Sankt-Peterburg: 8 (812) 576-70-00, www.spbdeti.org
Leningrad viloyati: 8 (812) 400-36-49, 8 (812) 710-00-15, 47deti.ru
Moskva: 8 (495) 957-05-85, deti.gov.ru/contacts/moskva
Moskva viloyati: 8 (498) 602-32-07, detimo.mosreg.ru

Буклет разработан БФ «ПСП-фонд»
Авторы-составители: Хлызова Д.В., Якимов А.Н.
Редактор: Панич Б.Л.

Буклет «Образование в России. Советы мигрантам»
на узбекском языке.

Публикация подготовлена в рамках проекта «Межрегиональный ресурсный центр по адаптации и интеграции мигрантов и гармонизации межнациональных отношений», реализуемого при поддержке Фонда президентских грантов.

ФОНД ПРЕЗИДЕНТСКИХ ГРАНТОВ

БФ «ПСП-ФОНД»

# ROSSIYADA TAʻLIM

## Muhojirlarga maslahatlar

2021

## BOLALAR BOGʻCHASI, MAKTAB

Rossiya fuqarolari bolalari kabi chet ellik fuqarolar bolalari ham bolalar bogʻchalariga bepul qatnash va maktabda bepul oʻqish huquqiga egadirlar.

Bolalar Rossiyada qonuniy asoslarda turishlari zarur, yaʼni ular muhojirlik kartasiga va registrasiyaga (muhojirlik qaydida turish) ega boʻlishlari zarur. EOIH mamlakatlari (Armaniston, Belorus, Qozogʻiston, Qirgʻiziston) fuqarolari boʻlgan mehnat muhojirlari bolalari Rossiyaga ota-onalari mehnat shartnomasi asosida va uning amal qilishi muddati davomida kelishadi.

**Maktab yoshidagi bolalar ota-onalari qonun boʻyicha bolani maktabga joylashtirishlari shart!**

**Chet ellik fuqarolarning 18 yoshga toʻlmagan bolalari RFda ishlash huquqiga ega emaslar!**

Bolalarni bolalar bogʻchasi va maktabga ota-onasining vaqtincha turgan erida (mujolirlik qaydi\ registrasiyadan oʻtgan) joylashtirish zarur.

**Bolalar bogʻchasi yo maktabning birinchi sinfiga joylashtirish uchun** МФЦ – qayddan oʻtilgan erdagi koʻp vazifali markazga murojaat etmoq zarur.

**Maktabga joylashtirish uchun rayon** maorif bolimiga murojaat etmoq zarur. Rayoningizdagi maorif bolimi bilan aloqa qilishni mintaqaviy taʼlim komiteti saytidan yo ijtimoiy tashkilotlarga murojaat qilib bilib olish mumkin.

Sizga **bolani bolalar bogʻchasi va maktabga ertaroq joylashtirishni** maslahat beramiz: bolalar bogʻchasi va maktabning birinchi sinfi uchun bolalar olish fevral-aprel oylarida, maktabning boshqa sinflari uchun esa - aprel-mayda boshlahadi.

Yirik shaharlar va aholi maskanlarida bolalar bogʻchalarida koʻpincha joy etishmaydi, shu bois navbatlar paydo boʻladi, va guruhdagi bitta oʻringa bir necha oila daʼvo qilishi mumkin. Agar Sizning bolalar bogʻchangizda boʻsh oʻrinlar boʻlmasa, Sizning bolangizni bolalar bogʻchasiga navbatga qoʻyishlari yoki boʻsh joy boʻlgan boshqa bolalar bogʻchasiga uyborishlari mumkin.

Chet el fuqarolarining bolalarini bolalar bogʻchasiga joylashtirish huquqida afzalliklarga ega:

- Rossiyada doimiy yashayotganlar (yashash huquqiga ega boʻlganlar);
- koʻp bolali oilalar aʼzolari;
- bolalar bogʻchasi xodimlari oila aʼzolari (agar ota-ona bolalar bogʻchasi yoki maktabda oʻqituvchi, tarbiyachi, qorovul, oshpaz, farrosh, hokazo boʻlib ishlasa ).

**Agar ota-onalar maktabga murojaat qilishsa va rad javobi olishsa, rayon maorif boʻlimiga murojaat etmoq zarur, u erda rayon maktablarining biridan joy berishlari shart.**

Ayrim hollarda maktabga joylashtirishda bolalar oʻqituvchilar bilan suhbatdan oʻtadilar, ular bolaning qaysi sinfda oʻqishini aniqlashadi. Oʻqituvchilar bolaning rus tilidan bilimi etarli boʻlmasa, unga quyiroq sinfda oʻqishni maslahat berishadi, bu hech bir xavotirli emas.

**Bolani bolalar bogʻchasi va maktabga joylashtirish uchun zarur boʻlgan hujjatlar ( asl nusxa va koʻchirma nusxalari):**

- bolaning pasporti va ota-onasidan birining pasporti;
- bolaning tugʻilganlik haqidagi guvohnomasi;
- bolaning va ota-onasidan birining muhojirlik kartasi;
- bolaning va ota-onasidan birining muhojirlik qaydi (registrasiya)ga qoʻyish haqidagi bildiruv (bola maktab yo bolalar bogʻchasiga boradigan rayondan);
- bolada bor boʻlgan tibbiy karta;
- tibbiy maʼlumot - 026 va emlashlar haqidagi sertifikat (bolalar tibbiy klinikalarida pullik rasmiylashtiriladi);
- bolaning oldingi maktabidan berilgan uning shaxsii delosi (agar u oʻqigan boʻlsa).

Odatda shuningdek, hujjatlarning notarial jihatdan tasdiqlangan rus tilidagi tarjimasi, baʼzan bolaning tibbiy polisini talab qilishlari mumkin.

**Agar bola rus tilidagi taʼlim maktabida oʻqishga tayyor boʻlmasa,** rus tilini yomon bilsa, rus bolalar bilan qiynalib munosabatda boʻlsa, ayrim mintaqalarda ijtimoiy tashkilotlarga murojaat etish va zarur qoʻllov olish mumkin. Volontyorlar –koʻngilli yordamchilar bolalar bilan bepul oquv mashgulotlari otkazishadi, hordiq va madaniy dasturlar tashkil etishadi, bolalarga rus jamiyatiga moslashib ketishga yordam berishadi.

**Sankt-Peterburgda:**
АНО «Дети Петербурга»
detipeterburga.ru tel.: 8 (911) 773-77-87
Tashkilot qoshida Yoshlar markazi faoliyat yuritadi.

**Moskva va Podmoskoveda:**
Центр адаптации и обучения детей-беженцев «Такие же дети»
kidsarekids-center.com

**Moskva viloyatida:**
Языковая школа «Ковчег»
pereletnye-deti.ru тел.: 8 (495) 995-41-54

Bolalarning rus tilini mustaqil oʻrganishlari uchun foydalanish mumkin:

- **A.S. Pushkin nomli rus tili instituti portali «Русский язык для наших детей»** rus4chld.pushkininstitute.ru/#
- **Boshlangʻich maktabda rus tilini qoʻllab-quvvatlash uchun portal ИМЦ Адмиралтейского района Санкт-Петербурга «Говоруша»** www.govorusha.adm-edu.spb.ru

Agar maktabga qabul etishda muammolar tugʻilsa, murojaat etish mumkin: **Комитет или Департамент по образованию** – u har bir mintaqada mavjud.

open.edu.gov.ru/appeals/e-send –Министерство просвещения РФ ga electron shikoyatlar uchun, тел.: 8 (495) 587-01-36.

Bola huquqi buzilgan holatda shuningdek oʻz mintaqangizdagi yo RFdagi bola huquqi boʻyicha Vakolatdorga murojaat etish mumkin – deti.gov.ru

## OʻRTA VA OLIY MAʼLUMOT

Hozirgi paytda Rossiyada chet elliklar va xorijda yashayotgan rossiya fuqarolari uchun mamlakatning 450 tadan ortiq oliy oʻquv yurtiga bakalavrlik, magistrlikka va aspiranturaga kirib oʻqish uchun kvota amal qiladi.

Министерства образования и науки РФning www.russia-edu.ru sayti yordamida Rossiya Federasiuasi buydjeti hisobiga Rossiya Hukumati tomonidan belgilangan kvota doirasida bepul oʻqish uchun ariza yozish va uning koʻrib chiqilishini kuzatish mumkin.

future-in-russia.com sayti – xorijda yashayotgan vatandoshlarning Федерального агентства по делам СНГ tarmogʻi boʻyicha va «Rossotrudnichestvo» xalqaro insonparvarlik hamkorligi boʻyicha Rossiyada taʼlim olish uchun ariza berish tizimi.